

“Intellectual-2018” tanlovi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3855-sonli qarori ijrosini ta‘minlash, innovatsion faoliyat sohasida yosh olimlar, ixtirochilarning faoliyatini kuchaytirish maqsadida eng yaxshi intellektual mulkni aniqlash va ularning mualliflarini rag‘batlantirish yo‘li bilan texnologiya va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqish maqsadida Institut talabalari o‘rtasida “Intellectual” tanloviga barcha fakultetlardan jami 29 nafar nomzodlar hujjati tanlovni o‘tkazish bo‘yicha institut tashkiliy qo‘mitasiga taqdim etildi va ushbu hujjatlarning 19 tasi tanlovda ishtirok etish uchun qabul qilib olindi. “Intellectual-2018” tanlovi 2018 yilning 15 dekabrda o‘tkazildi. Tanlovda quyidagi nominatsiyalar bo‘yicha talabalar qatnashishdi va g‘oliblikni qo‘lga kiritishdi:

“Eng yaxshi ishlanma” nominatsiyasi bo‘yicha

1-o‘rin - “Yopiq gorizontol drenajni tozalash ishlarini mexanizatsiyalash” ishlanmasi uchun “Gidromeliorativ ishlarini mexanizatsiyalash” fakulteti, 4 - kurs talabasi Meyliqulov Saidali To‘ychi o‘g‘liga;

2-o‘rin - “Namlik va haroratni o‘lchash qurilmasi” uchun, “Gidromelioratsiya” fakulteti, 2 - kurs talabasi Karimova Durdona Fazliddin qiziga;

3-o‘rin - “Atrof muhitni asl holatida saqlab qolish, aholi turmush tarzini yaxshilash” ishlanmasi uchun, “Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti” fakulteti, 3 - kurs talabasi Axmedov Ma‘murjon Maxmudjon o‘g‘liga hamda “Kollektor - zovur suvlaridan qayta foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi ishlanmasi uchun, “Gidromelioratsiya” fakulteti, 4 - kurs talabasi Jalilov Sirojiddin Muxiddin o‘g‘liga nasib etdi.

“Yaratilgan EHM dasturi” nominatsiyasi bo‘yicha:

1-o‘rinni - “Mobil aloqalarda kanallarda suv sarfini hisoblash uchun dastur”i uchun, Gidromelioratsiya fakulteti 2 - kurs talabasi Manzirboyev Ulug‘bekka;

2-o‘rinni - “Nauchno-prakticheskoye predlojeniyе po sozdaniyu mobilnogo prilozheniyе - pod nazvaniyem “MOBIL IZMERITEL” dasturi uchun, “Yer resurslarini boshqarish” fakulteti, 4 - kurs talabasi, Abdullayev Otabek Zoxid o‘g‘liga;

3-o‘rinni - “Raschet kapelnogo orosheniya” dasturi uchun, “Gidromeliorativ ishlarini mexanizatsiyalash” fakulteti 4 - kurs talabasi, Abdulxayev Eraj Abdushukur o‘g‘li ishg‘ol etdi.

Tanlovning o‘tkazilishida O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Innovatsion kengashi, Innovatsion jamg‘armasi, Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi tashkilotchilik qildi. Hamkor sifatida Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi va Axborot resurs markazini e‘tirof etish o‘rinlidir. Shu o‘rinda tashkiliy qo‘mita tarkibini keltirib o‘tish ham o‘rinlidir. Rais: - TIQXMMI rektori, i.f.d., prof. O‘.P.Umurzakov, rais o‘rinbosari: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor T.Z.Sultonov, a‘zolari: t.f.d. Sh.J.Imomov, t.f.d. M.R.Bakiyev, t.f.d. M.Mirsaidov, t.f.d. A.Isakov t.f.n. B.Norov, U.Qo‘ziyev, t.f.n. O.Ko‘charov, t.f.n. Z.M.Muqimov, t.f.d. A.M.Fatxulloyev, t.f.d. B.B.Xasanov, t.f.n. X.I.Turkmenov, t.f.n. D.A.Xodjayev, t.f.n. S.S.Mirzayev, kotib: q.x.f.n. M.M.Sarimsaqov.



**Institut ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi mutaxassisi Zarxol Choriyeva
axboroti**

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov